

KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHDA IMTIYOZ VA PREFERENSIYALARNING O'RNI

Yakubov Valijon Ganiyevich

*Farg'ona davlat texnika universiteti, "Moliya va buxgalteriya hisobi" kafedrası
kafedrası katta o'qituvchisi*

v.yakubov@ferpi.uz

Annotatsiya: Kuchli raqobat sharoitida kichik biznes va xususiy tadbirkorlar alohida o'rin tutadi. Ularning asosiy maqsadi mijozlarning ehtiyojlarini topish va qondirishdir, bu esa o'z navbatida iqtisodiy o'sishga hissa qo'shadi. Davlat bozorning bu asosiy elementlarini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirishga harakat qiladi, chunki ular iqtisodiyotning asosi hisoblanadi. Shu asnoda, ushbu maqolada kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini rivojlantirishda imtiyoz va preferensiyalarning rolini batafsil ko'rib chiqamiz. Ularning raqobatbardoshlikni oshirishdagi ahamiyati haqida to'xtalib o'tamiz. Tadqiqot natijalarida muvofiq innovatsion rivojlanish va raqamli iqtisodiyotga o'tish sharoitida biz kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanishiga ko'maklashadigan shaffof imtiyoz va preferensiyalar tizimini yaratishni taklif etiladi.

Kalit so'zlar: kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, imtiyoz va preferensiyalar, iqtisodiy rivojlanish, davlat qo'llab-quvvatlash, soliq imtiyozlari, raqobatbardoshlik, innovatsiyalar, raqamli iqtisodiyot, moliyaviy qo'llab-quvvatlash, byurokratik tartib-taomillar.

РОЛЬ ЛЬГОТ И ПРЕФЕРЕНЦИЙ В РАЗВИТИИ МАЛОГО БИЗНЕСА И ЧАСТНОГО ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА

Якубов Валижон Ганиевич

*Ферганский государственный технический университет, старший
преподаватель кафедры "Финансы и бухгалтерский учет"*

v.yakubov@ferpi.uz

Аннотация: В условиях жесткой конкуренции особое место занимают малый бизнес и частные предприниматели. Их главная цель - найти и удовлетворить потребности клиентов, что, в свою очередь, способствует экономическому росту. Государство стремится поддерживать и развивать эти ключевые элементы рынка, поскольку они являются основой экономики. В этой

связи, в данной статье мы подробно рассмотрим роль льгот и преференций в развитии субъектов малого бизнеса и частного предпринимательства. Рассмотрим их значение в повышении конкурентоспособности. Согласно результатам исследования, в условиях соответствующего инновационного развития и перехода к цифровой экономике мы предлагаем создать прозрачную систему льгот и преференций, способствующих развитию малого бизнеса и частного предпринимательства.

Ключевые слова: *малый бизнес и частное предпринимательство, льготы и преференции, экономическое развитие, государственная поддержка, налоговые льготы, конкурентоспособность, инновации, цифровая экономика, финансовая поддержка, бюрократические процедуры.*

THE ROLE OF BENEFITS AND PREFERENCES IN THE DEVELOPMENT OF SMALL BUSINESS AND PRIVATE ENTREPRENEURSHIP

Yakubov Valijon Ganiyevich

Fergana State Technical University, Senior lecturer of the Department of "Finance and Accounting"

v.yakubov@ferpi.uz

Abstract: In conditions of strong competition, small business and private entrepreneurs occupy a special place. Their main goal is to find and satisfy the needs of clients, which, in turn, contributes to economic growth. The state tries to support and develop these basic elements of the market, since they are the foundation of the economy. In this regard, in this article, we will examine in detail the role of benefits and preferences in the development of small businesses and private entrepreneurship. Let us dwell on their significance in increasing competitiveness. According to the research results, in the context of corresponding innovative development and the transition to a digital economy, it is proposed to create a transparent system of benefits and preferences that will contribute to the development of small business and private entrepreneurship.

Keywords: *small business and private entrepreneurship, benefits and preferences, economic development, state support, tax benefits, competitiveness, innovation, digital economy, financial support, bureaucratic procedures.*

KIRISH

Kichik kompaniyalar va mustaqil tadbirkorlar raqobatbardosh bozorning faol ishtirokchilaridir. Kichik biznes va tadbirkorlikning asosiy konsepsiyasi ehtiyojlarni aniqlash va ularni qondirishdan iborat. Ushbu ehtiyojlarni shakllantirish va raqobatli

bozorda o'sishni rag'batlantiruvchi omillarni rag'batlantirish har qanday bozor iqtisodiyoti sharoitida davlat boshqaruvining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Bu jarayonda manfaatlar va rag'batlar muhim rol o'ynaydi. Boshqacha aytganda, bu imtiyoz va rag'batlar nafaqat biznesni qo'llab-quvvatlaydi, balki mamlakatning iqtisodiy rivojlanishiga ham hissa qo'shadi.

Shu bilan bilan O'zbekistonda ham bu borada chuqur islohotlar amalga oshirilmoqda buning misoli sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tadbirkorlik subyektlariga subsidiyalar, imtiyozlar va preferensiyalarni taqdim etish tartiblarini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi [1] qarori keltirishimiz mumkin.

Shu bilan, birgalikda bu borada Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev biznes va tadbirkorlikni har tomonlama qo'llab-quvvatlash bo'yicha doimiy e'tiborida ekanligini alohida ta'kidlashimiz zarur, misol uchun 2024-yil yakunlari va 2025-yildagi asosiy rejalar yuzasidan o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida "Keng ko'lamli islohotlarimizning ilk kunlaridan boshlab men bir fikrni doim ta'kidlab kelaman: tadbirkorlikni rivojlantirish – biz uchun strategik vazifa. Bizning tayanchimiz ham, suvanchimiz ham, eng katta kuchimiz ham shu sohada mujassam. Shu bois tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash markazdan tortib eng quyi bo'g'ingacha – barcha rahbarlarning kundalik ishi bo'lishi shart" [2] deb o'z nutqining avvalida ta'kidlaganini keltirishimiz mumkin.

Yuqoridagilar kelib chiqadiki hozirgi dunyoda yuz berayotgan iqtisodiy tebranishlarning mamlakatimiz soha va tarmoqlariga ta'sirini yumshatish, davlat iqtisodiy xavfsizlik strategiyasini belgilovchi asosiy yo'nalishlardan biri kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga ko'maklashishdir.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismi bo'lib, uning o'sishi va tuzilishiga ta'sir qiladi. U yalpi hududiy mahsulot va yalpi ichki mahsulotni ko'paytirishga xizmat qiladi. Shu bilab birgalikda uning rivojlantirish mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Bu, o'z navbatida, mintaqa darajasida iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashning muhim jihati bo'lgan mintaqaning raqobatbardoshligi va barqarorligini oshirishga xizmat qiladi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik ulkan salohiyatga ega bo'lib, ularning faol rivojlanishi jamiyat ehtiyojlarini to'liq qondira oladi. Shu boisdan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni moliyaviy qo'llab-quvvatlashga qaratilgan davlat siyosati mamlakat iqtisodiyotini boshqarishda muhim o'rin tutadi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning iqtisodiy faoliyati, eng avvalo, uning iqtisodiy manfaati bilan belgilanadi. Xususan, kichik tadbirkorlik subyekti o'z iqtisodiy faoliyatidan maksimal darajada daromad olishdan manfaatdor. Davlat esa davlat va jamiyatning iqtisodiy manfaatlarini ta'minlash maqsadida tadbirkorning soliqlar va majburiy to'lovlar ko'rinishidagi daromadining bir qismini olib qo'yadi.

Aslida iqtisodiy munosabatlar ishtirokchilari o'rtasida murosaga erishish kerak, iqtisodiy manfaatdorlik esa xalq xo'jaligini boshqarishda iqtisodiy usullardan foydalanish imkonini beradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Ko'plab olimlar tomonidan kichik biznesni rivojlantirish, uni tartibga solish masalalari faol o'rganilgan va o'rganilmoqda. O'zbek olimlari R. Qosimjonov, X.P.Abulqosimov, Sh. Hasanov, B.R. Sanakulova, M.R. Boltaboev, M.S.Qosimova, Sh.J. Ergashxodjaeva, B.K. G'oyibnazarov, A.N. Samadov, R. Xodjaev, A.Mutalov, D.Mytalova, B.Yu.Xodiev, H.O. Rahmonov, Z.Ya.Xudoyberdiev, A.N. Samadov, G.N. Ostanaqulova, Z. Sa'dullayev va boshqalar shular jumlasidandir.

Tadbirkorlikni o'rganishga xorijlik iqtisodchi olimlardan K.Vesper, Dj.K.Gelbreyt, P.Druker, D.S.Makklelland, A.Marshall, A.Smit, Dj.-B.Sey, A.Shapiro, Dj.A.Shumpeterlar ham katta hissa qo'shganlar.

Rossiyalik olimlar ham zamonaviy sharoitda kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirishga katta e'tibor qaratmoqdalar. V.N. Afanasev, L.V. Babayeva, A.V. Vilenskiy, A.R. Gorbunov, A.N. Kolesnikova, D.N. Kuzin, M.G. Lapusta, Yu.M. Osipov, L.N. Prilskiy, V.V. Radayev, Yu.A. Rovenskiy, F.I. Shamxalov va boshqalar shular jumlasidandir.

Yuqoridagi olimlarning ilmiy izlanishlarida hamda boshqa normativ hujjatlarda biznes, kichik biznes, tadbirkorlik, xususiy tadbirkorlik tushunchasi bo'yicha ta'riflar keltirilgan, jumladan yurtimiz olimlaridan R. Qosimjonov "Tadbirkorlik — bu korxona egalarining innovatsion xatti-harakatlangan, g'oyalarni topish va ulardan foydalanish, ularni aniq tadbirkorlik loyihalariga tarjima qilish qobiliyatiga asoslangan mutlaqo yangi boshqaruv turi. Bu, qoida tariqasida, talabga javob beradigan biznesdir, lekin tavakkal qilmaydigan kishi oxir-oqibat muvaffaqiyat qozonolmaydi" [3] deb ta'riflaydi.

A.Mutalov, D.Mytalova muallifligidagi "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni soliqqa tortish" nomli o'quv qo'llanmasida "Kichik biznes subyektlari kana korxonalardan hech qanday farq qilmaydilar va ulardan faqatgina miqyos (razmer) lari bilan farq qiladigan korxona, tashkilot va mikrofirmalardir, yoki kichik korxonalar deganimizda, qandaydir boshqa korxonalar tushunilmay, balki barcha mulkchilik shakllariga asoslangan oddiy korxonalar tushunilib, ulardan faqat miqyoslari bilan farq qiladilar" [4] deb ularni soliqqa tortish yo'nalishiga urg'u bergan.

Tadqiqotimiz davomida kichik biznes va va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda preferensiya va imtiyozlarning ahamiyati haqida gapirganimizda, soliq imtiyozlariga e'tibor qaratmasdan ilojimiz yo'q.

Kichik biznes va va xususiy tadbirkorlik sohasida soliq imtiyozlaridan foydalanishga bag'ishlangan ko'plab ilmiy ishlar mavjud. V. G. Panskov o'zining

“Soliq imtiyozlari” tushunchasining ba’zi nazariy jihatlarini” asarida soliq imtiyozlari “soliq adolat nazariyasida past to’lov qobiliyatiga ega bo’lgan subyektlarga nisbatan qo’llaniladigan soliqqa tortish usuli” ekanligini ta’kidlaydi [5].

Bir tomondan, bunday yondashuv mantiqiy ko’rinadi. Ammo agar odamda soliq to’lash bilan bog’liq muammolar bo’lsa, u o’z ishini boshlashdan oldin soliq tizimini yaxshilab o’ylab ko’rishi kerak.

M.A. Abramova o’zining “Moliya va iqtisodiyotni tartibga solishning pul-kredit usullari” nomli asarida “soliq imtiyozlarini qo’llash davlatning yuritayotgan siyosati va maqsadidan kelib chiqqan holda ishlab chiqilishi shart. Kichik biznes subyektlari mamlakatning tadbirkorlik bilan shug’ullanuvchi subyektlarning katta bir tizimida element sifatida qaralsa-da, ularga nisbatan soliq imtiyozlarini qo’llash orqali biz tadbirkorlikni poydevorini mustahkamlaymiz” bu fikr soliq imtiyozlari konsepsiyasiga tayanadi [6].

Bu g’oya rivojlanish bosqichida bo’lgan va bozor iqtisodiyotiga o’tayotgan ko’pchilik davlatlar uchun dolzarbdir. Undan mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlarning mazmun-mohiyatini anglashda foydalanish mumkin.

Biroq, Ye.A. Yeremenko soliq imtiyozlari nafaqat iqtisodiy hodisa, balki huquqiy tizimning bir qismi hamdir, deb hisoblaydi. Uning ta’kidlashicha, davlat byudjetini rejalashtirishda soliq imtiyozlarini qo’llashni hisobga olish kerak [7].

Darhaqiqat, soliq yukini kamaytirish kichik tadbirkorlikni rivojlantirish uchun kuchli turtki bo’lishi mumkin. Ammo bu jarayonni nazorat qilishi va tartibga solishi kerak bo’lgan davlat organlariga qo’shimcha yukni ham keltirib chiqaradi. Bundan tashqari, imtiyozlarni moliyalashtirish uchun byudjetni qayta ko’rib chiqish kerak.

Shu bois, soliq imtiyozlarini joriy etishdan oldin ular qaysi subyektlar va qaysi sohalar uchun zarurligini puxta aniqlash muhim.

METODOLOGIYA

Tadqiqot davomida turli xil yondashuvlar qo’llanildi. Xususan, qiyosiy-tahliliy, funksional va boshqaruv tahlillaridan foydalanildi. Ular kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun imtiyoz va preferensiyalarning ahamiyatini baholash imkonini berdi. Shuningdek, abstraksiya, induksiya, deduksiya kabi umumilmiy metodlar ham qo’llanildi. Bundan tashqari, miqdoriy va sifat usullari qo’llanildi, ular o’zaro bog’liqlikda ko’rib chiqildi.


MUHOKAMA VA NATIJALAR

Hududlarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga yordam beradigan qonuniyat mavjud. Bu qonuniyat “radius qonuni” deb ataladi. U shundan iboratki, markazdan qanchalik uzoqlashsa, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik uchun shunchalik ko’p imkoniyatlar ochiladi, iqtisodiy va siyosiy xatarlar kamayadi.

Buni xorijiy hamkorlar ham, investorlar ham yaxshi biladi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalari, odatda, mahalliy bozorning ehtiyojlari va imkoniyatlariga, shuningdek, mahalliy talabning hajmi va tuzilishiga e'tibor qaratadi. Hududlarning iqtisodiy mustaqilligi sharoitida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mintaqaviy iqtisodiyot tarkibini optimallashtirishning kuchli vositasiga aylanishi mumkin.

Barqaror ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy rivojlanish sharoitida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik ijtimoiy hayotning muhim elementiga aylanmoqda. Bunday sharoitda tadbirkorlar odatda demokratiya, siyosiy barqarorlik va iqtisodiy erkinlik tamoyillariga amal qiladilar.

Ammo ularning mol-mulkiga xavf tug'lsa, kichik korxona egalari faollik va hatto tajovuzkorlik ko'rsatadilar. Ular uchun mulk ko'pincha yagona daromad manbai va asosiy tirikchilik manbai hisoblanadi. Bu kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni mahalliy va mintaqaviy jamoalar bilan chambarchas bog'laydi, bu esa, o'z navbatida, uning milliy asosga qaramligini shakllantiradi va vatanparvarlik tuyg'ularini rivojlantirishga yordam beradi.



1-rasm. Ilmiy-texnikaviy sohada kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga qaratilgan davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari¹

Ko'p xollarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari bozor segmentida erkin faoliyat olib boruvchi va bir mulkdorga qarashli bo'lgan hamda rahbarlik vazifasini bajaruvchi korxonalaridir [8-10]. Bu korxonalar bozor iqtisodiyotida asosiy rol o'ynaydi, uning barqaror ishlashi va rivojlanishini

¹ Rasm muallif tomonidan tayyorlangan.

ta'minlaydi. Ularning faoliyati jamiyat va umuman iqtisodiyotni mustahkamlashga xizmat qiladi. Biznesning turli shakllarini rivojlantirish ko'p jihatdan har bir hududning o'ziga xos xususiyatlariga bog'liq. Biroq, kichik biznes va xususiy tadbirkorlarning rivojlanishi va muvaffaqiyati, birinchi navbatda, jamiyatning ijtimoiy va institutsional tuzilishi bilan belgilanadi.

Shu bilan birgalikda davlat tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasida fan va texnologiyalar, ilmiy-texnikaviy yechimlarni rag'batlantirish siyosati olib boriladi, zero, ularda kichik hajimdagi ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatish sikli ko'proq manyovrlik beradi, bu muammolarga turli yondashuv va yo'lar bilan qarashga imkon beradi.

Shu boisdan ko'plab rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki ayniqsa fan va texnologiyalar, ilmiy-texnikaviy sohada kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirishga qaratilgan davlat siyosati yuksak natijalarni berishi mumkin. Yuqorida keltirilgan 1-rasm yordamida ilmiy-texnikaviy sohada kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirishga qaratilgan davlat siyosatining asosiy yo'nalishlarini ko'rish mumkin.

Yuqorida keltirilgan rasmdan ko'rinadiki fan va texnologiyalar, ilmiy-texnikaviy sohasida kichik biznesni yanada rivojlantirishga qaratilgan davlat strategiyasi bir qator chora-tadbirlarni o'z ichiga oladi:

- Maqsadli byudjetdan moliyalashtirish: davlat aniq loyihalar va tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash uchun mablag' ajratadi;
- Grantlar: kichik biznes uchun ham mahalliy, ham xalqaro grantlar mavjud bo'lib, bu uning rivojlanishiga hissa qo'shadi;
- Subsidiyalar va imtiyozli kreditlar: davlat subsidiyalar va imtiyozli kreditlar shaklida moliyaviy yordam ko'rsatadi, bu esa tadbirkorlarga o'z loyihalarini muvaffaqiyatli amalga oshirishga yordam beradi;
- Soliq imtiyozlari va preferensiyalar: soliq yukini yengillashtirish va biznes yuritish uchun qulay sharoitlar yaratish maqsadida.

Bundan tashqari, siyosat kichik biznes va tadbirkorlikka xususiy investitsiyalarni jalb etishga qaratilgan. Investorlarga imtiyoz va preferensiyalar berilmoqda, bu esa ushbu sohaga sarmoya kiritish uchun qo'shimcha rag'bat yaratadi.

Davlat fan va texnologiyalar sohasida kichik biznesni rivojlantirishga faol ko'maklashmoqda, uning o'sishi va ishlab chiqarishda innovatsiyalarni rag'batlantirish uchun shart-sharoitlar yaratmoqda.


Ushbu chora-tadbirlarni orqali nafaqat davlat o'z iqtisodiy rivojlanishini ta'minlaydi, balki aholining turmush farovonligiga etishadi O'zbekiston sharoitida kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish jamiyatni ijtimoiy o'zgartirish hamda mamlakat iqtisodiyotini bozor tamoyillariga o'tkazishga tayyorlash uchun poydevor

bo'lishi mumkin. Kichik biznes va tadbirkorlik O'zbekistonda iqtisodiy va ijtimoiy munosabatlar tizimida markaziy o'rinni egallaydi.

Kichik biznes va tadbirkorlik iqtisodiy tizimning ajralmas elementi bo'lib, sog'lom raqobatni saqlash, jadal rivojlanishni ta'minlash va innovatsiyalarni rag'batlantirishda muhim rol o'ynaydi.

Kichik biznes va tadbirkorlik korxonalari ish o'rinlarini yaratish va jamiyatning barqaror rivojlanishi uchun poydevor bo'lgan o'rta sinfni shakllantirishga hissa qo'shadigan lokomotiv vazifasini bajaradi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida tadbirkorlar bozor konyunkturasidagi o'zgarishlarga tezkor munosabat bildirish, hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'yish va yangi sharoitlarga muvaffaqiyatli moslashish uchun noyob imkoniyatga ega.

Kichik biznes va tadbirkorlik korxonalar moslashuvchanlik va tez moslashish qobiliyatini namoyish etadi, bu ularga nafaqat raqobat muhitida omon qolish, balki yetakchi o'rinlarni egallash imkonini beradi. Bu sohada muvaffaqiyatga erishish uchun nafaqat moliyaviy salohiyat, balki doimiy ravishda takomillashish va ustunlikka intilish ham talab etiladi.



2-rasm. Kichik biznes va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash siyosati²

² Rasm muallif tomonidan tayyorlangan.

Xalqaro tajribalar shuni ko'rsatmoqdaki har bir mamlakat ushbu kichik biznes va tadbirkorlikning samarali rivojlanishiga yordam beradigan shart-sharoitlarni yaratish zarur. Bu tarmoq yirik monopol kompaniyalarga yetishmayotgan bozorning yetarli darajada to'yinganligini, narxlar barqarorligini va sog'lom raqobatni ta'minlashga qodir [12-16].

Hozirgi kunda kichik biznesni qo'llab-quvvatlash moliyaviy, mulkiy, axborot, maslahat kabi shakllarda amalga oshirilmoqda. Shundan kelib chiqib iqtisodiy siyosat ham tub o'zgarishlar, islohotlar ro'y bermoqda fikrimizcha bundan yuqoridagi 2-rasmda keltirilgan masalalar bugungi kunda juda dolzarbdir.

Jahon tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki kichik biznes va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashning davlat siyosati turlicha, bu har bir mamlakatning o'ziga xos ijtimoiy—iqtisodiy, geografik joylashuvi bilan bog'liq. Misol uchun Yaponiya davlatida kompaniyalarning qariyb 90 foizi mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydigan kichik va xususiy korxonalar toifasiga kiradi [11]. Ushbu sohani qo'llab-quvvatlash maqsadida huquqiy asoslarini mustahkamlashga qaratilgan ko'plab qonun hujjatlari ishlab chiqilgan. Ushbu qonun hujjatlari orasida quyidagilarni alohida ajratib ko'rsatish mumkin:

- kichik va o'rta biznesga nisbatan davlat siyosatining asosiy yo'nalishlarini belgilovchi hujjatlar;
- iqtisodiyotning ushbu tarmoqlarini modernizatsiya qilishga qaratilgan chora-tadbirlar;
- kichik korxonalar faoliyatiga rahbarlik qilish va qo'llab-quvvatlashni ta'minlovchi mexanizmlar.

Bu shuni anglatadiki har bir davlat kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash siyosatini ishlab chiqishda o'ziga xos yondashuvlar ishlab chiqishi zarur O'zbekistonda ham mustaqillikning ilk yillaridan bo'shlab kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning huquqiy asoslari yaratildi. Ushbu jarayon doirasida Oliy Majlis bir qator asosiy qonunlarni qabul qildi, jumladan:

- "O'zbekiston Respublikasida korxonalar to'g'risida"gi Qonun;
- "O'zbekiston Respublikasida xususiy tadbirkorlik to'g'risida"gi Nizom;
- "O'zbekiston Respublikasida kichik va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni rag'batlantirish to'g'risida"gi Qonun.

Garchi bu qonunlar va nizomlar bugunga kelib o'z kuchini yo'qotgan bo'lsa-da, ular O'zbekistonda mustaqilligining dastlabki yillarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning muhim omili bo'lib xizmat qildi.

Yuqoridagilar kelib chiqib aytish mumkinki kichik biznes va xususiy tadbirkorlik har bir mamlakat iqtisodiyotning asosi bo'lishi mumkin hamda uning

tizimni shakllantirishda asosiy rol o'ynaydi. Ular iqtisodiyotni bir butun qilib bog'lovchi bo'g'in bo'lib xizmat qiladi.

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik har bir mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy masalalarni hal etishda va jamiyatning umumiy taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etadi. Ular ishlab chiqarish, ish bajarish va xizmat ko'rsatish sohalarida yangi ish o'rinlari yaratilishiga ko'maklashadi, bu esa o'z navbatida aholi bandligini ta'minlaydi va ishsizlik darajasini pasaytiradi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari jamiyat hayotida alohida o'rin egallaydi. Ular o'z biznesini mustaqil tashkil etadigan va boshqaradigan ko'plab kishilar uchun daromad manbaiga aylanadi. Bu insonlar — kichik biznes egalari va xodimlari o'zlariga munosib hayot tarzini ta'minlab, iqtisodiyot rivojiga o'z hissalarini qo'shmoqda. Ular kuchli va adolatli davlat shakllanishi uchun poydevor bo'lib xizmat qiladi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik o'z ishini yo'lga qo'yish nafaqat daromad topish, balki o'z iste'dodini ro'yobga chiqarish imkoniyati hamdir. Kichik biznes yangi ish o'rinlari yaratadi, bu esa ishsizlik darajasini pasaytirishga va hayotni barqarorlashtirishga xizmat qiladi. Kichik biznes sohasida ishlaydigan tadbirkorlar har doim ham davlatga bog'liq emas. Ular o'z bizneslarini rivojlantirishlari va boshqalarga yordam berishlari mumkin, bu esa ishsizlikka qarshi kurashishga yordam beradi.

Bundan tashqari, kichik biznes yoshlarni ish bilan ta'minlash imkonini beradi. Biroq, ularning ba'zilar jinoiy muhitga tushib qolishi va bu ularning kelajagiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Hududlarni rivojlantirish — bu muhim vazifa. Infratuzilma yetarli darajada rivojlanmagan, yirik shaharlargacha bo'lgan masofa uzoqligi, iqtisodiyot tayyor mahsulot ishlab chiqarishga emas, balki xomashyo qazib olishga asoslangan hududlarda iqtisodiy va ijtimoiy muammolar yuzaga keladi.

Bu vazifalarni hal etish uchun yangi sanoat tarmoqlarini barpo etish orqali hududlarni faol rivojlantirish zarur. Kichik biznes, ayniqsa, kichik shahar va qishloqlarda iqtisodiyotni mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi. U hududlarda aholining turmush darajasini yuksaltirishga, ushbu hududlar aholisining yirik shaharlar darajasida yashashi va ishlashiga imkon beradi.

Fikrimizcha quyidagilar kichik biznes va xususiy biznesni rivojlantirishga yordam beradigan asosiy yo'nalishlar bo'lishi mumkin, jumladan:

1. Tadbirkorlar uchun soliq imtiyozlarini takomillashtirish.

Soliq solishning soddalashtirilgan tizimi, patent tizimi va soliq ta'tillari kabi mavjud soliq imtiyozlarining natijadorligini batafsil o'rganish zarur. Bu eng samarali qo'llab-quvvatlash vositalarini aniqlash va ularni mintaqaviy sharoitlarni hisobga

olgan holda kichik biznesning turli segmentlariga moslashtirish mexanizmlarini yaratishga yordam beradi.

2. Subsidiyalar va grantlar ko‘rinishidagi moliyaviy qo‘llab-quvvatlash.

Maqsad: boshlang‘ich kompaniyalar va kichik biznesni rivojlantirishga davlat va xalqaro grantlarning ta‘sirini o‘rganish. Maksimal iqtisodiy samaraga erishish imkonini beradigan eng istiqbolli loyihalarni aniqlash uchun mezonlar tizimini ishlab chiqish.

3. Byurokratik tartib-taomillarni optimallashtirish.

Maqsad: ro‘yxatga olish va hisobot berish jarayonlarini soddalashtirish kichik korxonalar sonining o‘sishiga qanday hissa qo‘shishi mumkinligini o‘rganish. Bundan tashqari, raqamli texnologiyalarni qo‘llash va davlat nazorati darajasini pasaytirish imkoniyatlarini ko‘rib chiqish.

4. Innovatsiyalarni imtiyozlar yordamida rag‘batlantirish.

Ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlariga investitsiya kiritgan kichik korxonalarga qo‘shimcha soliq imtiyozlari berish. Shuningdek, yuqori texnologik startaplarni qo‘llab-quvvatlash uchun grantlar tizimini ishlab chiqish lozim.

Shunday qilib, mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish uchun ularni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash zarur. Bu ularning ichki va xalqaro bozorda barqarorligi va raqobatbardoshligini ta‘minlashda muhim ahamiyatga ega.

Faqat shu yo‘l bilan biz sifatli tovarlar va xizmatlarni barqaror ishlab chiqarishni kafolatlay olamiz, bu esa o‘z navbatida fuqarolarning hayot sifatini yaxshilaydi. Shu bois kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash barchamiz uchun asosiy vazifalardan biri bo‘lib qoladi. Bu yo‘nalish davlat oldida turgan dolzarb muammolarni hal etishga yordam beradi. Biz barcha mavjud resurslarni ishga solishimiz va iqtisodiy rivojlanishda faol ishtirok etishimiz kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Tadbirkorlik subyektlariga subsidiyalar, imtiyozlar va preferensiyalarni taqdim etish tartiblarini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori, 24.05.2024 yildagi PQ-193-son. <https://lex.uz/uz/docs/-6937347>

2. Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida tadbirkorlikni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha 2024-yil yakunlari va 2025 yilga asosiy rejalar yuzasidan videoselektor yig‘ilishi hamda yetakchi tadbirkorlar bilan muloqot materiallaridan. <https://president.uz/uz/lists/view/7778>

3. D.S.Qosimova. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik. (Darslik). -T.: «Инновацион ривожланиш нашриёт-матбаа уйи», 2020, 328 bet.

4. Mutalov A., Mulalov. D. M. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni soliqqa tortish: O'quv qo'llanma. T.: Iqtisodiyot. 2012. - 84 b.
5. Пансков, В. Г. (2018). Налоговый льготы: сущность и опр еделение. ЭТАП: экономическая теория, анализ, практика, (4), 32-48.
6. Финансовые и денежно-кредитные методы регулирования экономики. Теория и практика : учебник для магистратуры / под ред. М. А. Абрамовой, Л. И. Гончаренко, Е. В. Маркиной. — 2-е изд., испр. и доп. — М.: Издательство Юрайт, 2018. — 486 с.
7. Еременко, Е. А. (2015). Специальные налоговые режимы и концепция справедливости налогообложения. Финансы, (9), 76-80.
8. Mexmonaliyev, U. E. (2024). Ichki nazoratini takomillashtirishning usullari. Экономика и социум, (8 (123)), 135-138.
9. Qudbiyev N. T. va b. Tadbirkorlik subyektlarida ichki nazoratning samarali tizimi sifatida ichki auditning o'rni va ahamiyati //Scientific progress. – 2022. – Т. 3. – №. 1. – С. 449-457.
10. Qudbiyev, N. T. (2023). Korxonalarning innovatsion strategiyasini ishlab chiqish xususiyatlari: korxonalarning innovatsion strategiyasini ishlab chiqish xususiyatlari.
11. Nishioka, H., & Takeuchi, A. (2018). The development of high technology industry in Japan. In The development of high technology industries (pp. 262-295). Routledge.
12. Ganiyevich, Y. V. (2024). Mamlakat iqtisodiyotida moliyaviy nazoratning roli va uni tashkil etish zarurati. Scientific Journal of Actuarial Finance and Accounting, 4(02), 83-88.
13. Yakubov, V. G. (2022). Mahsulot bozorini kengaytirish korxonaning foydasini oshirish muhim omili. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(5), 852-861.
14. Абдуллаева, С. (2024). Современные подходы к понятию экономическая стабильность, а также система ее основных показателей. Экономическое развитие и анализ, 2(12), 242-249.
15. Абдуллаева, С. (2024). Вопросы определения системы показателей характеризующих экономическую стабильность. Экономическое развитие и анализ, 2(5), 384-388.
16. Davlyatova, G. (2023). Sanoatga investitsiyalar jalb etishning joriy holati va ulardan foydalanish samaradorligi. Iqtisodiyot va ta'lim, 24(6), 194-200.